

AFG‘ONISTONDAGI 1970 YILLARDAGI KESKIS VA
AYOVSIK SIYOSAT TARIXI

Baxtiyorjon G‘aniboyev

SHMT dariy-ingiliz guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: Axmadjonov N.B.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg‘oniston hududigagi 1970 yillarda boshlangan siyosiy harakatlar uning natijasida esa yuzaga kelgan urushlar SSSR, AQSH va Angilya hukumatlarining amalga oshigan siyosati haqida

Kalit so‘zlar: SSSR, AQSH, Angilya, Afg‘oniston, Nodirshoh, Muhammadzohirshoh.

"Yangi hukumat Afg‘onistondagi real hayotni hisobga olmay islohotlar o‘tkazishga kirishdi. Bu islohotlar SSSRda o‘tkazilgan islohotlar andozasiga o‘tish edi. Shuning uchun ham Afg‘oniston xalqi bu islohotlarni qabul qilmadi. Ruhoniylar hukumat siyosatini islom asoslaridan qaytish, deb baholadi. Ular aholini sovetparast hukumatga qarshi kurashga chaqirdi. Millionlab xalq Pokiston va Eron hududiga qochib o‘tdi. Hukumatga qarshi kuchlar ittifoqi vujudga keldi. AXDPda birlik bo‘lmadi. 1978-yil 17-avgustda B. Karmal, Abdulqodir va boshqalar fitnada ayblanib qamoqqa olindi. Bu omil mamlakatda fuqarolar urushi boshlanishini muqarrar qilib qo‘ydi. Bu e‘lon qilinmagan urushni G‘arb rag‘batlantirdi. Buning ustiga AXDP ichida hokimiyat uchun kurash boshlandi. Shunday sharoitda, 1979-yil sentabr oyida Taraqqiy o‘ldirildi. Hokimiyatni uning o‘rinbosari, suiqasd tashkilotchisi H. Amin egalladi. Mamlakatda terror va zo‘ravonlik avj oldi. Aprel inqilobi shu bilan barham topdi. Aprel to‘ntarishi va uning oqibatlarini 271 Bu davrga kelib qurolli muxolifat kurashni kuchaytirdi. Ular Amin hukumatini qiyin ahvolga solib qo‘ydi. Hukumat qo‘shinlari nazorati ixtiyorida faqat Kobul va yana bir nechta shahar qoldi, xolos. Shunday sharoitda Afg‘onistonning o‘z strategik maqsadlari doirasidan chiqib ketishini istamagan SSSR avantiyuraga qo‘l urdi. 1979-yil 25-dekabrda SSSRning qo‘li bilan Amin hukumati ag‘darildi. SSSRga sodiq bo‘lgan va Pragadagi elchilik vazifasidan Afg‘onistonga kelgan B. Karmal prezidentlik lavozimiga o‘tkazildi. 28-dekabrda SSSR o‘z harbiy qismlarini Afg‘onistonga kiritdi. Tez orada bu qo‘shinlar soni 85 ming kishiga yetdi. Jahon jamoatchiligi SSSRning bu harakatini qattiq qoraladi. Ayni paytda sovet – amerika munosabatlari yanada keskinlashdi. 1982-yildan Jenevada bu masalada BMT komissiyasi ishladi. Asosan Pokiston hududiga joylashgan muxolifatchi kuchlari AQSHning zamonaviy qurollari bilan qurollantirildi. SSSR qo‘shinlari Afg‘onistonda 10 yil turdi. Harbiy operatsiyalarda qatnashdi. Biroq u himoya qilgan rejim hech nimaga erisha olmadi. Xo‘sh, nega shunday bo‘ldi? Chunki

Afgʻoniston hukumati sovet nusxasidagi jamiyatni qurmoqchi boʻlgan edi. Afgʻonistonda bunday jamiyatni qurishning esa iloji yoʻq edi. Ikkinchidan, afgʻon xalqi koʻz oʻngida yangi hukumat ateistik davlat armiyasini oʻz davlati hududiga kiritib katta gunohga botgan edi. Bunday hukumatni qoʻllash esa undan-da katta gunoh boʻlur edi. Shu tariqa SSSR Afgʻonistonda harbiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Buni yaxshi anglab yetgan M. S. Gorbachyov SSSR armiyasini Afgʻonistondan olib chiqib ketishga qaror qildi. Va 1989-yilning fevral oyida bu vazifa amalda bajarildi. 15 mingdan ortiq sovet jangchilari halok boʻldi. Sovet oʻz hududini janubga qarab kengaytirish ilinjida Afgʻoniston yerlariga yana koʻz olaytira boshlagan edi. Oʻz siyosatini, mafkurasini Afgʻon yerida majburlash kuch ishlatish yoʻliga oʻta boshladilar. SSSR armiyasi tish tirnogʻigacha qurollangan holda tank oʻqotar qurollar zirhli texnika va aeroflot xizmatidan foydalangan holda ochiqchasiga Afgʻoniston davlatiga Anneksiya harakatida bosqinchilikni boshladilar. Hatto BMT ham Gegamon davlatlar ham bunga qattiq raddiyalarini berishdilar. Afgʻoniston mudofaasi dunyo ning Yirik qudratli armiyasining tajovuziga qarshi tura oldi. Ammo Million lab tinch aholisi qariyalar ayollar va bolalarni sovet bosqinchilari tomonidan vahshilarcha oʻldirilgan. SSSR ning dunyodagi mavqeyi tobora yomonlashib boraverdi va bu Sovet davlatini parchalanishiga olib keldi." "1988-yil Afgʻoniston prezidenti Najibullo bergan statistikaga koʻra urushda 243 ming 900 nafar odam vafot etgan. Shundan 35 ming 700 nafari ayol, 20 ming 700 nafari yosh bola. Qolganlari harbiy xizmatchilar va fuqaro erkaklar. 77 ming kishi esa yaralangan yoki nogiron boʻlgan. AQSh manbalarida esa Sovet-Afgʻon urushida bir million odam halok boʻlgani keltiradi. Ahmad Shoh Masʻud esa bir yarim million odam halok boʻlgani, besh million odam mamlakatdan qochib chiqib ketgani haqida maʼlumot bergan. Biroq hozirda Afgʻoniston hukumati oʻn yillik urushda 330 ming afgʻon halok boʻlganini aytmoqda. Oʻn yillik urushda sobiq Ittifoq armiyasidan 14 ming 427 askar va ofitserlar, KGBning 576 ta xodimi, ichki ishlar Vazirligining 28 xodimi, oʻsha paytda SSSR chegarasida turgan 514 ta chegarachi halok boʻldi. 416 ming kishi esa kasallik (kontuziya, asab va b.) orttirib olishdi. Afgʻon urushida ishtirok etgan sovet armiyasi 650 ming harbiy xizmatchidan iborat edi. Eng koʻp halok boʻlish 1984-yilga toʻgʻri keldi. Oʻsha yilning oʻzida sovet armiyasidan 2 ming 343 ta askar va ofitserlar oʻldirildi. Sovet armiyasidan jami 417 ta harbiy xizmatchi asirga tushdi yoki bedarak yoʻqoldi. Shundan 130 tasi urush vaqtida asirlikdan ozod qilindi. Asirlarni ozod qilishda AQSh ham ishtirok etdi. Taxminan 30 kishi asirlikdan keyin SSSRga qaytmay, Yevropa va Amerikada yashashga qaror qildi. Shulardan uch kishi keyinchalik vataniga qaytdi." "Urushda Afgʻonistonning 362 ta tanki, 804 ta bronatransportyori, 120 ta samolyoti, 169 ta vertolyoti mujohidlar tomonidan yoʻq qilindi. Shuningdek, mujohidlar SSSRning 147 tankini, 1 ming 314 ta bronamashinasi (BTR, BMP va h.)ni, 510 ta injenerlik mashinasini, 11 ming 369 ta yuk va benzovoz mashinalarini, 433 ta artilleriya texnikasini, 118 ta samolyotini, 333

ta vertolyotini yakson etishdi." "Hirotdagi voqealar DRA tomonidan amalga oshirilgan kommunistik islohotlarga qarshi keng ko'lamli tartibsizliklar sharoitida sodir bo'ldi, uning asosiy qismi agrar islohot edi. Islohotlar an'ana va islom tamoyillariga zid bo'lishidan tashqari, ko'p hollarda ular o'ylashi kerak bo'lgan qishloq kambag'allarining ahvolini yomonlashtirdi[2]. 1978-yil may oyidan boshlab Nuristonda butun Afg'onistonda DRA va uning siyosatiga qarshi o'z-o'zidan qo'zg'olon ko'tarildi. Tasavvuf an'analarini o'z ichiga olgan bu forscha shaharning an'anaviy madaniyati mamlakatning boshqa qismlariga nisbatan nisbatan erkinroq edi. 1979-yilda siyosiy rejimga qarshi ko'plab boshqa qarshiliklar singari, qo'zg'olonchilarning diniy e'tiqodini ham birlashtiruvchi omil edi.

SSSRdan yordam so'rash

1978 yil 8 may kuni Afg'oniston hukumati SSSR rahbariyatiga murojat qilib zudlik bilan Afg'onistonga partiya, xavfsizlik (KGB), harbiy va xo'jalik xodimlardan iborat maslahatchilar yuborishni so'raydi. Afg'onistonga eng dastlab KGB xodimlari, so'ng boshqa soha vakillari jo'natiladi. Keyinchalik oshkor bo'ldiki, o'shanda SSSR hukumati Afg'onistonga oshpaz yoki injyener sifatida ham asosan KGB xodimlarini jo'natgan. 1979 yilning bahorida Afg'oniston hukumati SSSRdan harbiy yordam so'raydi. Ammo SSSR buni rad etadi. Jumladan, 1979 yil 19 martda KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy byurosining navbatdan tashqari yig'ilishida SSSR rahbari Brejnev shunday degandi: «Kun tartibida Afg'onistonga harbiy yordam berish masalasi turibdi. Afg'on do'stlarimiz bizdan harbiy yordam ko'rsatishimizni so'rashyapti. Biz hozirgi holatda, bu mamlakatga harbiylarimizni kiritmaymiz. Bu hammamizning zararimizga ishlashi mumkin» ADR bosh vaziri Nurmuhammad Tarakiy KPSS MK bosh kotibi Leonid Brejnev bilan. 1978 yilning 4 dekabri. Foto: TASS Ikkinchi tomondan, SSSR mudofaa vaziri Dmitriy Ustinov buyrug'i bilan Afg'oniston bilan chegara hududlar, Turkmaniston va O'zbekistonga harbiy havo-desant qo'shinlari joylashtirila boshlangan. 1979 yil sentabr oyida Afg'oniston hukumati va AXDP

ichidagi kelishmovchiliklar tufayli partiya rahbari Nurmuhammad Tarakiy qamoqqa olinadi va keyinchalik hukumatni qo'lga olgan Hafizulloh Amin tomonidan qatl etiladi. Hafizulloh Amin hukumatni qo'lga olar ekan, SSSR rahbariyati bilan do'stona aloqada bo'lishini bildiradi. 1979 yil sentabr oyidan dekabr oyigacha Amin SSSR hukumatidan bir necha bor harbiy yordam so'ragan. Ikkinchi tarafdan, u AQSh bilan hamkorlik qilish haqida yashirincha muzokara o'tkaza boshlagan. Bu hol tabiiyki, SSSR hukumatiga yoqmaydi. Moskva Aminni taxtdan ag'darish va uning o'rniga Afg'oniston hukumati rahbarligiga Babrak Kormalni tayinlash rejasini tuza boshlaydi. Afg'onistonga qo'shin kiritilishi 1979 yil dekabr oyida Afg'onistonning Bagrom shahriga KGBning «Musulmon bataloni» nomini olgan va asosan Markaziy Osiyo respublikalari va Kavkazdan chaqirilgan xodimlardan iborat bo'lgan maxsus bo'linmasi jo'natiladi. 1979 yil 10 dekabr kuni SSSR Mudofaa vaziri D.Ustinov Turkiston va Markaziy Osiyo harbiy okruglarini jangovar holatga keltirish haqida buyruq beradi. Shuningdek, 103-Vitebsk harbiy gvardiya havo-desant diviziyasi jangovar trevoga bilan oyoqqa turg'iziladi. Nihoyat, 1979 yil 12 dekabrda SSSR Siyosiy byurosi Afg'onistonga qo'shin kiritish haqida qaror qabul qiladi. 14 dekabrda SSSRning Bagromdagi harbiy bazasini 1979 yil iyul oyidan beri qo'riqlayotgan 105-gvardiya havo-desant diviziyasining 111-polkiga yordam tariqasida Afg'onistonga 345-havo-desant polki kiritiladi. Afg'onistonga sovet qo'shinlarining kiritilishi 1979 yil 23 dekabr kuni tunda mudofaa vazirligi Afg'onistonga qo'shin kiritishga tayyorligini ma'lum qiladi. Oradan bir kun o'tib SSSR Mudofaa vaziri D.Ustinov «Do'st afg'on xalqiga yordam berish maqsadida mamlakat janubidagi Sovet harbiylarining bir qismini qo'shni davlat hududiga kiritishga qaror qilindi», deb yozilgan direktivani imzoladi. 1979 yil 25 dekabrda Turkiston harbiy okrugidagi 40-umumqo'shin armiyasi Afg'onistonga kiritish uchun jangovar tayyor holga keltirildi. O'sha kuni tushdan so'ng Afg'onistonga kirish uchun buyruq beriladi va SSSR harbiy bo'linmalari quruqlik va havo orqali Afg'oniston hududiga bostirib kiradi. Harakatdagi armiyaga yordam berish uchun 27 dekabr kuni O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikistondan umumiy hisobda 32 ming zaxiradagi harbiy xizmatchilar chaqirilib harbiy harakatlarga tayyorlanadi. Aholi vakillaridan va turli tashkilotlardan 9 mingta «UAZ» avtomobili harbiy harakatlarda foydalanish uchun olib qo'yiladi. 1979 yil 25-27 dekabr kunlarida Afg'onistonga yana qo'plab harbiy bo'linmalar olib kirildi. Aminning o'ldirilishi yoxud salla o'ragan KGB xodimlari 1979 yil 16 dekabrda Aminga suiqasd uyushtiriladi. U tirik qoladi. Babrak Kormal zudlik bilan Moskvaga chaqirib olinadi. Brejnev va AXDP bosh kotibi Babrak Kormal. Foto: TASS 20 dekabr kuni «Musulmon bataloni» Bagromdan Kobulga o'tkazildi. Ushbu batalon Amin yashayotgan saroyini egallashi shart edi. Amin saroyini egallash uchun Moskvadan KGBning yana ikkita maxsus bo'linmasi chaqiriladi.

1979 yil 27 dekabr kuni, KGB maxsus bo'linmalari va harbiylar yordamida Amin

saroyi egallanadi va Aminning o‘zi o‘ldiriladi.

SSSR tashqi ishlar vaziri A.Gromiko va Afg‘oniston tashqi ishlar vaziri Hafizulloh Amin. 1978 yilning 18 mayi.

Foto: TASS

O‘sha paytda Amin saroyiga KGB maxsus bo‘linmasi bostirib kirkani haqida hech qayerda gapirilmagan. Ommaga «Afg‘on xalqi Amin saroyini zabt etib o‘zini o‘ldirdi», deya ma’lumot berilgan.

«Pravda» gazetasi esa «Xalq isyon ko‘tarib, Aminning saroyiga bostirib kirdi va Amin va uning tarafdorlarini o‘ldirdi», deb yozib chiqqan. Keyinchalik, SSSR tarqab ketganidan so‘ng, o‘shanda Amin saroyiga bostirib kirib uni va tarafdorlarini o‘ldirgan «afg‘on xalqi» afg‘onlar kiyimini kiyib olgan KGBning maxsus bo‘linmasi xodimlari bo‘lgani oshkor bo‘ldi.

Amin o‘ldirilganidan so‘ng Babrak Kormal Bagromdagi SSSR harbiy bazasidan chiqib, Kobulga keladi va uni Afg‘oniston rahbari deb e‘lon qilishadi. U SSSR rahbariyatidan Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish uchun o‘z mamlakatiga harbiylarni kiritishni «iltimos qiladi».

Babrak Kormal. Foto: TASS

Bunga javoban sovetlar rahbariyati Afg‘onistonga qo‘shin kiritish haqida qaror chiqaradi. Ammo, bungacha SSSR harbiylarining katta qismi Afg‘onistonga kirib bo‘lgan edi.

Shu tariqa Afg‘onistonda urush boshlandi.

Urushni bir necha oyda tugatmoqchi bo‘lgan Ustinov va Andropov

Afg‘onistonga harbiylarni kiritishga o‘sha payda SSSR Mudofaa vaziri bo‘lgan D.Ustinov va KGB rahbari Yu.Andropovning hissasi katta bo‘lgan.

SSSR mudofaa vaziri Dmitriy Ustinov. Foto: TASS

Ular Brejnevni «Afg‘onistonda bir hovuch dushman bor. Ikki-uch oyda ularni yengib, urushni tugatamiz», deya ishontirishgandi.

Ularning maqsadi urush oqibatlarini o‘ylab tashvishlangan Brejnevni o‘shanda tinchlantirish bo‘lganmi yoki o‘z kuchlariga haddan oshiq ishonishmi — bu masala mavhumligicha qolib kelmoqda.

Keyinchalik, Brejnevning jiyani Lyubov Brejneva o‘z esdaliklarida Afg‘on urushi boshlanganidan biroz vaqt o‘tib tog‘asining har kuni kechki payt Dmitriy Ustinovga qo‘ng‘iroq qilib «Dima, bu urush qachon tugaydi? Sen urush uzoq davom etmaydi, degan eding. Ammo, jin ursin bu urushingni, oxiri ko‘rinmayapti-ku?! Axir, u yerda bolalarimiz halok bo‘lishyapti?!» deb gapirganlari haqida eslab o‘tgan.

Afg‘onistondagi urushda SSSR harbiylariga qarshi kurashayotgan tomonlarni G‘arb davlatlari, xususan AQSh har taraflama qo‘llab-quvvatladi. Natijada urush cho‘zilib ketadi.

D.Ustinov va Yu.Andropovga ishonib, Afg‘onistonga qo‘shin kiritishga rozi

bo'lgan L.Brejnev 1982 yilda vafot etdi.

SSSR rahbari Leonid Ilich Brejnev. Foto: TASS

«Bir necha oyda bu urushda yengib chiqamiz» degan D.Ustinov, hamda avval KGB, so'ngra SSSR rahbari bo'lgan Yu.Andropov 1984 yilda vafot etishdi.

Ammo, Afg'on urushi tugamadi va millionlab insonlarga ofat olib kelishda davom etaverdi. Hukumat OAV va televideniye orqali «Afg'onistondagi janglarda sovet qo'shinlarining qo'li ustun kelayotgani, g'alaba onlari yaqinligi» haqida tinimsiz yolg'on ma'lumotlar beraverdi.

Afg'on urushi SSSR uchun haqiqiy halokat bo'ldi

Afg'on urushi SSSR uchun katta noxushliklarni olib keldi.

Birinchi navbatda, SSSR bu urush uchun nihoyatda katta mablag' sarfladi. Mamlakat rivoji uchun ishlatilishi lozim bo'lgan mablag' havoga sovurildi. Oqibatda mamlakat iqtisodiyotida turg'unlik yuzaga keldi.

Shuningdek, bu urushda ko'plab harbiylar, shu jumladan, Afg'onistonda turli ishlar yuzasidan xizmatda yurgan fuqarolar halok bo'lishdi.

Brejnev hukmronligi davrida, 1970-yillardan boshlab ancha iliqlashgan SSSR-AQSh munosabatlari eng yomon holatga keldi.

AQSh boshchiligidagi G'arb davlatlari, Afg'on urushi tufayli SSSRga qarshi iqtisodiy sanksiyalar joriy etdi va SSSRdan neft va gaz sotib olmay qo'ydi. Buning natijasida mamlakat iqtisodiyoti juda katta zarar ko'ra boshladi.

Harbiy xizmatga sog'lom ketgan bolasining nogiron bo'lib yoki tobutda jasadi kelishi odamlarga aks ta'sir ko'rsata boshladi va SSSRning o'zida ham bu urushga qarshi norozilik kuchayib boraverdi.

Afg'on urushida AQShning roli

SSSRning Afg'onistonga qo'shin kiritishiga AQSh boshliq G'arb davlatlari boshdanoq qarshi edi.

Afg'onistonda urush boshlanganidan so'ng AQSh va yana bir qator G'arb davlatlari SSSRga qarshi kurashayotgan guruhlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Ularga qurol-yaroq, oziq-ovqat, kiyim-kechaklar yetkazib beriladi. AQSh tomonidan berilgan yordam miqdori yil sayin oshib boravergan. 1984 yilda 125 million dollar, 1987 yilda 630 million dollar miqdorida yordam berilgan.

Afg'on muxolif guruhlarining vakillari o'sha paytlarda bir necha bor AQShga tashrif buyuradi. AQSh prezidenti Ronald Reygan ularni Oq uyda ham qabul qilgan.

AQSh prezidenti Ronald Reygan Oq uyda afg'on muxolifati delegatsiyasini qabul qilmoqda. 1983 yil.

Foto: Vikipediya

Afg'on urushi AQSh uchun yangi qurollarni sinab ko'radigan poligon vazifasini ham bajarib beradi. Bu yerda ular turli kimyoviy va boshqa qurollar sinovdan o'tkazib ko'riladi.

Odamni bepusht qiladigan kimyoviy moddalar qo‘shib tayyorlangan piyodaga qarshi minalar va snaryadlar ilk bor Afg‘on urushida sinab ko‘rilgan. Bu haqda sobiq «afg‘onchi»lar o‘z esdaliklarida yozishgan.

Afg‘onistondan qo‘shinlarni chiqarish

1985 yil 11 mart kuni K.Chernenkoning vafotidan so‘ng SSSR rahbarligi M.Gorbachyovga o‘tdi.

Mixail Gorbachyov. Foto: TASS

Brejnev va uning vorislaridan farqli o‘laroq, Gorbachyov vaziyatni munosib baholadi va Afg‘on urushida g‘alaba qozonib bo‘lmasligini yaxshi anglab yetdi. U 1986 yil fevral oyida, KPSSning XXVII s‘yezdida Afg‘onistondan qo‘shinlarni bosqichma-bosqich olib chiqish haqida bayonot berdi.

Oradan yana ikki yil o‘tib, 1988 yil 15 maydan boshlab Afg‘onistondan qo‘shinlar chiqarila boshlandi. 1989 yil 15 fevralda oxirgi qismlar Termizdagi Hayraton ko‘prigidan o‘tdi.

Afg‘onistondan sovet qo‘shinlarining olib chiqilishi. 1989 yil. Termiz, Hayraton ko‘prigi. Foto: TASS

Dunyoda, tinchlik o‘rnatilishiga qo‘shgan munosib hissasi uchun Gorbachyov 1990 yilda Tinchlik yo‘lidagi xizmatlari uchun xalqaro Nobel mukofotini oladi.

O‘zbekiston Afg‘on urushida

SSSRda Afg‘on urushidan eng ko‘p jabr chekkan hududlar Markaziy Osiyo respublikalari bo‘ldi. Eng ko‘p askar shu hududdagi ittifoqdosh respublikalaridan olindi.

Jumladan, O‘zbekistondan 64 500 nafar yigit Afg‘on urushida ishtirok etgan va ulardan 1522 nafari halok bo‘lgan. 2500 nafardan oshiqroq o‘zbekistonlik nogiron bo‘lgan.

Albatta, yuqoridagi raqamlar SSSR tarqab ketgunicha berilgan rasmiy ma‘lumot hisoblanadi va u ancha kamaytirib ko‘rsatilgan bo‘lishi ehtimoli ham yo‘q emas.

Afg‘on urushi fojialari va oqibatlarini O‘zbekistondagi aksariyat oilalariga kirib bordi. Kimningdir bolasi halok bo‘ldi, kimningdir bolasi nogiron bo‘ldi.

O‘shanda O‘zbekistonga «200-yuk» temir tobut har kun kelib turgan.

Afg‘on urushidagi yo‘qotishlar

Afg‘onistondagi 10 yillik urushda SSSR harbiylari juda ko‘p yo‘qotishlarga uchradi. O‘sha paytda SSSR qurolli kuchlari harbiy texnikalari ko‘pligi va qudratliliigi bilan maqtanishi mumkin edi.

Ammo, harbiy askarlar sifati haqida bunday deb bo‘lmas edi. Mamlakat armiyasida shartnoma asosida xizmat qilish tizimi yo‘q va unda asosan «hali go‘dak suti og‘zidan ketmagan» yosh yigitlar xizmat qilardi.

18 yoshda harbiy xizmatga chaqirilgan yigitlar ikki yil xizmat qilib, tajribasi biroz oshganida zaxiraga bo‘shatilar va o‘rniga yana yosh yigitlar olinar edi. Afg‘on urushida

ana shu no‘noq tizim pand berdi.

Mutlaqo jangovar tajribasi bo‘lmagan yosh yigitlarning jang maydoniga tashlanishi ularning «tutday to‘kilishi»ga va janglarda yutqazishiga sabab bo‘ladi.

SSSR harbiylariga qarshi jang qilgan afg‘onlar esa Pokistondagi lagerlarda tayyorgarlik ko‘rgan va bir necha yillik jang tajribasiga ega edi.

Norasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Afg‘on urushida umumiy hisobda 2 million Afg‘oniston harbiylari va fuqarolari halok bo‘lgan. Ayrim tadqiqotchilar ma‘lumotlarida halok bo‘lganlar qariyb 3 million nafar bo‘lgani qayd etilgan, 5 million nafar afg‘onistonlik esa qochqinga aylangan.

SSSR tomonidan bu urushda jami 820 ming nafar harbiy qatnashgan. 1989 yilda ulardan 14 453 nafari halok bo‘lgani haqida, rasmiy ma‘lumot berilgan. SSSRning jami yo‘qotishi 15 031 nafar bo‘lgan. Ammo, tahlilchilar SSSR harbiylarining Afg‘on urushidagi yo‘qotishlari bundan bir necha barobar ko‘p bo‘lganini bildirishadi.

SSSRning harbiy texnikalar yo‘qotilishi haqidagi rasmiy ma‘lumotlari ham kamaytirib ko‘rsatilgani aytiladi.

SSSR Afg‘on urushi uchun har yili 800 million dollar mablag‘ ajratgan. Norasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra esa SSSR bu urush uchun har yili 3 milliarddan 8,2 milliard dollargacha mablag‘ sarflagan.

Sovet qo‘shinlari chiqarilganidan so‘ng

SSSR qo‘shinlarining Afg‘onistonda olib borgan o‘n yillik urushi bu mamlakat uchun og‘ir asorat qoldirdi. SSSR harbiylari chiqarilganidan keyin ham Afg‘oniston tinchimadi. Turli guruhlar hokimiyat talashib, fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Afg‘oniston hanuz notinch bo‘lib qolmoqda. Bu yurtda urush boshlanganiga ayni kunlarda 40 yil bo‘ldi. Bugun barcha — Afg‘on xalqining o‘zi ham, unga chegaradosh davlatlar, jahon ahli — Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilishini xohlayapti. Ammo, hozircha bu xohishlarning amalga oshishi qiyin bo‘lmoqda. Ammo, umid so‘ngani yo‘q va bu yurtda tinchlik o‘rnatilishiga ishonuvchilar ham ko‘p.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) A.M. Mannonov, N.A. Abdullayev, R.R. Rashidov “Afg‘oniston tarixi” Toshkent-2018
- 2) M. Boboxo‘jayevning “Afg‘onistonning eng yangi tarixi kitobi” Toshkent-2009
- 3) O‘zbekiston milliy ensklopediyasi Toshkent-2000
- 4) Orif Usmonov “Afg‘oniston o‘zbeklari haqida ba‘zi ma‘lumotlar” Toshkent-1975 yil
- 5) Bo‘rivoy Ahmedov “Tarixdan saboqlar” Toshkent O‘qituvchi-1994 yil
- 6) Nasriddin Nazarovning “Afg‘oniston o‘zbeklari” maqolasi
- 7) Xodiya Xoshimbekovanning “Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari” maqolasi
- 8) Ivan Yavorskiyning 1878-1879 yilgi Rus elchilarining Buxoro va Afg‘onistonga sayohat kundaligi.